

## BUYUK BOBOMIZ ABU RAYHON BERUNIYNING ILMIY VA MADANIY MEROSINI O'RGANISH, AZALIY QADRIYATLARIMIZ SIFATIDA

Xolmatova Zahro O'ktam qizi

Toshkent tibbiyot akademiyasi

Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi fakulteti 2-kurs 206- guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7895548>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Sharqning buyuk allomasi Abu Rayhon Beruniyning ilmiy izlanishlari, Ma'mun akademiyasidagi faoliyati, yozgan asarlari, ilm-fan olamiga qo'shgan ulkan hissasi xususida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Abu Rayhon Beruniy, "Ma'mun akademiyasi", "Hindiston", "Geodeziya", "Saydana", "Mineralogiya", Sanskrit tili, "Astronomiya", "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar"

O'rta Osiyoda ming yillar oldin yashab o'tgan allomalar, faylasuflar, fiqhshunos olimlarning ilm sohasidagi izlanishlari, erishgan yutuqlari hozirgi kunda ham jahon hamjamiyatini hayratga solib, e'tirof etib kelinmoqda. Sharqdagi ilm-fan va ma'rifatning so'nmas yulduziga aylangan allomalardan biri bu Abu Rayhon Beruniydir. Beruniyning ilm sarhadlari qanchalik keng ekanligini u yaratgan ilmiy asarlar orqali bilib olish mumkin. U o'z davrining deyarli barcha fanlarini mukammal o'rgangani sababli tarix sahifalariga "Qomusiy olim" deb muhrlangan.

Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy 973-yil 4-sentyabrda qadimgi Kot shahrida tavallud topdi. Uning nasl-nasabida "berun" so'zi "tashqi shahar", "Beruniy" esa "tashqi shaharda yashovchi kishi" ma'nosini bildiradi. O'z zamonasining hamma fanlarini, birinchi navbatda, falakiyot (astronomiya), fizika, riyoziyot (matematika), ilohiyot, ma'danshunoslik fanlarini puxta egallagan. Bu fanlar taraqqiyotiga qo'shgan hissasi bilan uning nomi dunyo fanining buyuk siymolari qatoridan joy oldi. [1] Beruniy fanning deyarli hamma sohalari bilan shug'ullandi. Sharqning boy fan va madaniyatini puxta o'rganib, yunon ilmi bilan ham chuqur tanishib, yirik olim bo'lib yetishdi. Beruniy shoir, adabiyotshunos ham edi. Ona tilidan tashqari arab, sug'diy, fors, suryoniy, yunon va qadimgi yahudiy tillarini egalladi. Keyinchalik, Hindistonda sanskrit tilini o'rgandi. O'z ilmiy asarlaridan birida yozishicha, Beruniy Xorazmda yashagan davrida 990-yildan Kot shahrida muhim astronomik kuzatishlar o'tkazgan. Bu kuzatishlar uchun o'zi astronomik asboblarni ixtiro etgan. [1] Iroqiylarning oxirgi vakili Abu Nasr Mansur ibn Iroq Beruniyning ustozidir. Al-Beruniy tarixchi, xronolog va tilshunos sifatida ham ajralib turardi. [2]

U o'zining „Geodeziya“ asarida 990-yil Kat shahrining geografik kengligini aniqlaganini yozadi. Ma'lumki, geografik kenglikni aniqlash uchun geografiya, matematika va astronomiyadan yetarlicha bilimga ega bo'lish lozim. Ray shahriga (hozirgi Tehron yaqinida) keladi. U Rayda mashhur olim — matematik va astronom al-Xo'jandiy, tabib va faylasuf ar-Roziylar bilan tanishadi. Beruniy Rayda o'zining „Al-Faxriy sekstanti“ risolasini yozadi. 997-yil Beruniy Katga qaytdi. Bu davrda Xorazmda o'zgarishlar bo'lib, Ma'mun vafot etib, uning o'rniga Ali ibn Ma'mun taxtga chiqqan edi. 997-yilda mashhur tabib Abu Ali Ibn Sino ham Urganchga keladi. [3]

998-yil Beruniy Jurjonga keldi. U Jurjonda 1004-yilgacha yashaydi. O'zining o'n beshga yaqin asarini shu yerda yaratdi. Jumladan, olimning „Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar“ asari 1000-yil atrofida shu yerda yozilgan. 1004-yilning bahorida Beruniy Xorazmshoh Ma'mun II ning taklifiga binoan Xorazmga qaytdi. Bu vaqtda Xorazmning poytaxti Urganch edi.

Urganchda u shoh nomidagi “Ma`mun akademiyasi”ni barpo etadi. Saroyda al-Masihiy, tabib al-Hammar, Ibn Iroq va boshqalar ishlar edi.[3] Urganchda Beruniy matematika, astronomiya bilan bir qatorda fizika va mineralogiyaning ba’zi masalalari bilan shug’ullandi. Minerallarni aniqlash, ularni tizimga solishda solishtirma og’irliklardan foydalanish g’oyasi ham mana shu yerda tug’ildi.

Hindiston yarimoroliga sayohat qilganda, Hindistonda amalda bo’lgan hinduiylik dinini o’rganib chiqqandan so’ng 1030-yilda “Tarix al-Hind” (Hindiston tarixi) nomli hind madaniyati haqida risola yozdi. U o’z davri uchun hayratlanarli darajada xolis yozuvchi edi. Turli xalqlarning urf-odatlarini va e’tiqodlarini, uning ilmiy ob’ektivligi 11-asr boshlarida Hindistonni ajoyib tasvirlagani uchun unga al-Ustad (“Ustoz”) unvonini berdi.[4]

Beruniyning matematikaga va fanning boshqa sohalariga qo’shgan hissasini yozib qoldirgan 100 dan ortiq asaridan ham ko’rish mumkin. Ulardan eng yiriklari — „Hindiston“, „Yodgorliklar“, „Qonuni Mas’udiy“, „Geodeziya“, „Mineralogiya“ va „Astronomiya“. Qolganlarini quyidagicha taqsimlash mumkin: matematikaga doirlari — 22 ta; astronomik asboblarga haqida — 10 ta; astrologiklari — 21 ta; turli fanlar (fizika, mineralogiya, adabiyot, tarix va boshqalar) — 38 ta; turli tillardan tarjima asarlar — 21 ta. Beruniyning bu asarlaridan atigi 30 ga yaqini bizning kunlarga yetib kelgan. Beruniyning bu asarlaridan atigi 30 ga yaqini bizning kunlarga yetib kelgan.[5]

Beruniy o’z asarlari ro’yxatini tuzgandan keyin yana ikkita muhim kitobini yozgan. Bularning biri “Mineralogiya”dir. Bu risola o’z zamonasi uchun Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq, hatto Ovro’poda ham mineralogiya sohasida eng yaxshi, tengi yo’q asar hisoblanadi. Beruniyning oxirgi asari – “Dorivor o’simliklar haqida kitob”ining qo’lyozmasi XX asrning 30-yillarida Turkiyada topildi. Asar “Saydana” nomi bilan mashhur, unda Beruniy Sharq, ayniqsa Markaziy Osiyoda o’sadigan dorivor o’simliklarning to’la tavsifini beradi. Jumladan “Saydana” asarida 1116 tur dorivorni tavsiflaydi. Shundan 750 turi o’simliklardan, 101 turi hayvonlardan, qolgan 255 turi minerallardandir. “Saydana” asarining asosiy xususiyatlaridan biri shundaki, unda Abu Rayxon Beruniy dorivornoslik o’zi alohida fan bo’lishligini ta’kidlab, shu bilan farmakologiya fanini asoslaydi.[6]

Beruniy shogirdi Abul Fadl as-Seraxsiy ma’lumotiga ko’ra 1048-yil 11 dekabrda G’aznada(hozirgi Afg’oniston) vafot etgan.[7]

Abu Rayhon Beruniyning ilmiy asar yozishdan tashqari she’r yozishga ham qiziqqan. U yozgan badiiy boyliklar ham diqqatga sazovordir. “Astrologiyaga kirish”, “Astronomiya kaliti”, “Jonni davolovchi quyosh kitobi”, “Ikki xil harakatning zarurligi haqida”, “Ko’paytirish asoslari”, “Ptolemey “Almagesti”ning sanskritchaga tarjimasi”, “Foydali savollar va to’g’ri javoblar”, “Farg’oniy “Elementlar”iga tuzatishlar”, “Turklar tomonidan ehtiyotkorlik”, “Oq kiyimlilar” va karmatlar haqida ma’lumotlar”, “She’rlar to’plami”, “Al-Muqanna haqidagi ma’lumotlar tarjimasi”, “Ibn Sino bilan yozishmalar” shular jumlasidandir.[8]

Xulosa qilib aytish mumkinki, buyuk bobimiz Abu Rayhon Beruniyning ilmiy va madaniy merosini o’rganish, uni o’quvchi va talabalarga yetkazish azaliy qadriyatlarimiz sirasiga kiradi. Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad Beruniy o’rta asrlarning buyuk qomusiy olimlaridan edi. Uning buyukligi o’sha davrning deyarli barcha fanlariga qo’shgan betakror ilmiy merosida namoyon bo’ladi. Beruniyning olimlilik salohiyatiga mashhur sharqshunos olim I.Yu.Krachkovskiy „uning qiziqqon ilm sohalaridan ko’ra qiziqmagan sohalarini sanab o’tish osondir“ deb baho bergan edi. G’arb tadqiqodchilaridan M.Meyerxoff esa „Beruniy

musulmon fanini namoyish etuvchi qomusiy olimlarning eng mashhuri bo'lishi kerak" degan fikrni bildiradi. Beruniy haqidagi oliy baho va tavsiflar Tabriziy, Suyutiy, Qazviniy, Tusiy, Xurosoniy kabilarning asarlarida keltiriladi.

O'zbekistonda 2023-yilda buyuk alloma tavalludining 1050 yilligini xalqaro miqyosda keng nishonlash bo'yicha qaror qabul qilingan.

### References:

1. [www.oyina.uz](http://www.oyina.uz)
2. [uz.m.wikipedia.org](http://uz.m.wikipedia.org)
3. U.Uvatov, Buyuk yurt allomalari, Toshkent, O'zbekiston, 2016
4. H.Hasanov, Sayyoh olimlar, Toshkent, O'zbekiston, 1981
5. K.Gadoyev, S.Berdiyeva, Jahongashta sayyoh olimlar, Toshkent, O'zbekiston, 2012
6. Abu Rayhon Beruniy, Tanlangan asarlar, II tom, Hindiston, Toshkent, O'zbekiston FAN nashriyoti, 1965
7. Abu Rayhon Beruniy, Tanlangan asarlar, 5tom, Ilkitob, Qonuni Ma'sudiy, Toshkent, O'zbekiston FAN nashriyoti, 1973.



INNOVATIVE  
ACADEMY